

TASAVVUF PSIXOLOGIYASI VA UNING SHAXS TARBIYASIDAGI O'RNI

Toirova Munavvar

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
2-bosqich magistri

Annotatsiya: Maqolada Tasavvuf psixologiyasi va uning shaxs tarbiyasidagi o'rni va Jaloliddin Rumiyning shaxs tarbiyasidagi psixologik qarashlari atroficha ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, Jaloliddin Rumiy, "Masnaviy ma'naviy", so'fiylik, "Ichindagi-ichindadir"

Jaloliddin Rumiy Muhammad ibn Bahouddin Muhammad al-Balxiy (1207-1273) shoir, mutafakkir, mavlaviylar (mavlaviya) tariqatining norasmiy shayxi. Jaloliddin Rumiy hozirgi Afg'onistonning Balx shahrida, sultonal ulamo laqabini olgan ulug' shayx Muhammad Bahouddin Valad xonardonida dunyoga kelgan. Otasi Bahouddin Valad so'fiylar va fiqh donishmandi bo'lgan.

Jaloliddin Rumiyning tasavvuf olamiga kirib kelishi Shayx Farididdin Attorning bashorati bilan bo'lganini uning ilk tafsirchilaridan Husomiddin Chalabiydan tortib, Davlatshoh Samarqandiygacha bir ovozdan tasdiqlaydilar: Ka'ba ziyoratiga yo'l olgan Bahouddin Valad va uning o'g'li Nishopurga yetganidan xabar topib, Shayx Attor ziyoratchilarining qarshisiga chiqadi. O'spirinning suhbatidan mamnun bo'lib, unga o'zining "Asrornoma" kitobini taqdim etadi va otasiga qarata: "O'g'lingiz tez orada olamdag'i barcha kuyganlar qalbiga otash soladi", - deb bashorat qiladi. Rumiy tariqat yo'lini tutib, shoir Said Burhoniddinga shogird tushadi, so'ng qalandar so'fiy Shamsiddin Muhammad Tabriziy bilan do'stlashib, uni o'z piri deb e'lon qiladi. Tabriziy uch yil Rumiya dars beradi: falsafa, xususan, so'fiylik ta'limotini o'rgatadi. Rumiyning o'zi ham bir baytida: "Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo'lsa, Shamsi Tabriziy tilsim kalitini tutqazdi, -degan. Tabriziy ta'sirida Rumiy aqliy izlanishlaridan voz kechadi. Bu Rumiy muridlari, ulamolar noroziligiga sabab bo'ladi va ular fatvosi bilan Tabriziy o'ldiriladi. U bu fojiadan qattiq ta'sirlanib, pirining ismi sharifini taxallus qilib, g'azallar yoza boshlaydi. Uning "Shamsi Tabriziy devon" nomi bilan shuhrat qozonishining boisi, u "Shamsi Tabriziy", "Shamsi" taxalluslarini qo'llashidadir.

"Ichindagi-ichindadir" – sodda fors tilida yozilgan asar, ulug' muallif "Masnaviy ma'naviy"dagi hadis va oyatlar, hikoyat va tamsillarga o'ralgan, o'ta murakkab bir falsafiy muhokamalar asosiga qurilgan fikrlarini bu yerda ravshan va sodda qilib tushuntirib bergen. Asarni o'qir ekansiz, ulug' va noyob bir tafakkur xazinasi ustidan chiqqanday bo'lasiz. Saratonda sahroda toliqib, tashna qolgan odam sharqiragan

buloqni ko‘rganda qanday xursand bo‘lsa, musaffo chashma suvidan ichib qanchalik rohatlansa, ma’naviyatga tashna odam ham Rumiy asarini o‘qib shunday tunganmas huzur topadi. Bunda juda ko‘p masalalar ustida bahs boradi: tajrid va tavhid, surat va ma’no, tavakkul va idtihod, g‘ayb asrori va laduniy ilmlari mohiyati va yana qanchadan qancha muammolar yoritiladi.

Eng muhimi shuki, Rumiy murakkab so‘fiyona mulohazalarni oddiy turmush tafsilotlari bilan tushuntirib beradi, intihosiz qudratga ega inson aqlining, ruhiyatining mo‘jizalarini hayratomuz bir tarzda namoyish etadi. Rumiy ming yillar davomida to‘planib kelgan Sharq falsafasi va hikmati, islomiy haqiqatlarini omuxta etolgan, tasavvuf va falsafani qo‘shib, inson ruhi dialektikasini ochgan ulug‘ mutafakkirdir. Uning qarashlarida biror bir mutaassiblik, ko‘r-ko‘rona aqidaparastlik namunasini ko‘rmaymiz. U tiyrak va hushyor ko‘z bilan dunyoga nazar soladi, insonni qanday bo‘lsa, shunday olib o‘rganadi, inson qalbi to‘ridagi eng nozik, eng inj, eng yashirin sirlarni oshkor etadi, ruhimiz iqlimlaridagi o‘zimiz sezmagan qonuniyatlar, zaruriyatlarni ko‘rsatib beradi. Shu bois “Ichindagi ichindadir”ni (“Fihi mo fihiy”) botiniy ilmlar bayonnomasi, o‘zlikni va ilohni tanish kitobi deb ayta olamiz. “Ichindagi ichindadir”da ruh dialektikasi, inson mayllari, tushuncha-tasavvurlari, ehtiyoj va talablari, iztirob va qiyonoqlari, ziddiyatlar va muvofiqliklar, kurash va g‘alaba, yo‘qlik va borliq, ro‘yo va haqiqat, jism va jon va hokazolar ustida bildirilgan fikrlar shunchalik chuqur va shu qadar yorqinki, bu fikrlarni bundan yetti yuz ilgari aytilganiga ishonqiramay qolasiz, go‘yo ular bugun aytilganday. Bu asar insonni fikrlashga, fikrlash orqali o‘zligini, o‘zligi orqali haqni - Yaratganni tushunishga undaydi. Shuning uchun ham “Ichindagi ichindadir”ga bir marta oshno bo‘lgan ko‘zi ochiq insonki bor umrbod undan ayrilmasa, deydi. Chunki asar, avvalo, o‘sha inson haqida – siz haqingizda, men haqimda, umuman, hammamiz haqimizda. Mashoyixlar “O‘zini bilgan avliyo bo‘ladi” deya bejiz aytishmagan.

Jaloliddin Rumiyning mashhur asari “Masnaviy ma’naviy”dir. Asarda Qur’oni karim va Hadisi sharif ma’nolarini o‘ziga singdirgan, inson hayoti bilan bog‘liq barcha masalalar badiiy yo‘sinda bayon etilgan 6 jild (daftar)dan iborat asarning dastlabki qismlarini adibning shogirdi Hisomiddin Chalabiy ustoziga og‘zidan yozib olib, tahlildan o‘tkazgan. Chalabiy vafotidan so‘ng muallif asarning davomini 10 yilda yozib tugatadi. Qur’oni karim oyatlarining 70 foizi mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan, 270 dan ziyod hikoyalarni, yuzlab pandu hikmatlarni o‘z ichiga olgan bu kitob o‘z vaqtida va keyinchalik ham yozuvchi nominining dunyoga keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Chunki Rumiy masnaviyda o‘zigacha bo‘lgan Sharqu G‘arb donishmandlarining falsafiy qarashlarini, islomiy farzlarini sodda bir uslubda, she’riy yo‘l bilan badiiy ifodalagan.

Rumiy buyuk mutafakkir inson sifatida dunyo ziddiyatlari, ziddiyatlarning o‘zaro vobastaligi (“qarama-qarshiliklar birligi”), dunyoda milliard shaklu shamoyilda

mavjud bo‘lgan ashylarning o‘zaro aloqasi, bir-biriga bo‘lgan o‘tish – evrilishlari, modda almashinishing zarradan koinot qadar amal qilishi, hayot va o‘lim sabablari (hayot-ziddiyatlar “kelishuvi”, “yarashish”, o‘lim-ziddiyatlar “jangi”), jism va ruh, odam va iloh haqida yozadi, tahlil va tadqiq etadi. “Masnaviy”da 690 hadisga rumiyona sharh berilgan.

Ko‘z oldimizda ham Kalom ilmining ulug‘ bilimdoni ham tasavvuf ta’limotini sarbaland cho‘qqiga olib chiqqan orif inson ham muqtadir daho shoir gavdalanadi. Oddiy latifalar, hikoyatlardan Rumiy favqulodda falsafiy-so‘fiyona ma’nolar chiqaradi, teran tafakkuri doiradan doiraga, darajadan darajaga ko‘tarilib boradi. “Qur’onning uch qabat botiniy ma’nosi bor”, deb qayd etadi va u anna shu ma’nolarni izchil tushuntiradi. Jaloliddin Rumiyning buyukligi yana shundaki, u islomning ulug‘ shoiri va mutafakkiri bo‘lgani holda barcha mazxablar va dinlardan yuqori ko‘tarila oldi, bani basharni birlashtiruvchi yagona ilohiy g‘oyalarni olg‘a surib, kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi e’tiqod va iymon, ishq va sig‘inish, poklik va tavbadan so‘z ochdi. “Cho‘llar muxtalif, ammo maqsad bir, ya’ni Olloh huzuri”, deya Ulug‘ Tangri haqiqati Olloh jami maxluhot barobarligini isbotladi.

Rumiy ijodi yuksak badiyati bilangina emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta’sir kuchiga ega. Uning tabiatini va jamiyat hodisalarining doimiy o‘sishi, o‘zgarishda ekani, eskini yo‘qotib, yangining paydo bo‘lishi – “dunyoning ziddiyatlar birligidan jangi”dan iboratligi to‘g‘risidagi qarashlari, nemis faylasufi Hegelning e’tiroficha, uning dialektik metodni yaratishga yordam bergen. Falsafani Hegel va Marksdan, Shopengauer va Kantdan, Niyliche va Freyddan o‘rgangan kishilar Rumiyni o‘qib, hammasi o‘zimizda allaqachon bor ekan, hammasi aytilgan ekanu deyishlari tabiiy.

Odamning buyuklik darajasini uning qanchalar asl xonardonida tavallud topganiga qarab aniqlab bo‘lmaydi. Ammo insonni oxirgi manzilga kuzatish darajasiga ko‘ra, uning kimligini tasavvur etish mumkin. Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” romanidagi alloma vafoti bilan bog‘liq lavhada shunday so‘zlar bitilgan: “Turklar va xurosoniylar, yunonlar va armanlar, pravoslavlар va yahudiylar – hamma shoir bilan vidolashishga kelgan, har kim o‘z rusumida alvido aytardi”.

Orada faqihlardan biri “amir ul-umaro” Muniniddin Parvonaga: “O‘z shayxini dafn etayotgan mo‘minlar ichra nasroniy va yahudiylar ne qilur?”, -deb ularni haydashni so‘radi. Biroq bu befoyda edi. “Quyosh Yer yuzini yoritganidek, Mavlono haqiqat nuri ila butun bashariyatni munavvar etmish. Quyosh – hammaning mulki!”- dedi nasroniylar ruhoniysi. “Mavlono – non kabidirlar. Non hammaga zarur. Amirim, ochlarning nondan yuz o‘girib ketganini qayda ko‘rgansiz?”-dedi yahudiylar ravvini. Mavlono Rumiy - ana shunday umumbashariy zot. Rumiy asarlari ko‘pchilik forsigo‘y va turkiygo‘y shoirlar ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan, masnaviyxonlik xalqimiz o‘rtasida keng tarqalgan.

Jaloliddin Rumiyning ilmiy va adabiy merosi g‘oyat katta. G‘azal, masnaviy va ruboziylarni o‘z ichiga oladigan “Devoni kabir” (“Ulug‘ devon”)da uch mingdan ortiq she‘r bor. Falsafiy-sufiyona mushohadalar, ruhiyat dialektikasini kashf etib, inson aqlini lol qoldiradigan teranlik bilan yozilgan “Masnaviy-ma’naviy” ham bir necha ming baytdan iborat. Bundan tashqari, “Maktubot”, “Fihi mo fihiy” (“Nimaki undadir – undadir”) nomli asarlari ham mavjud.

Rumiy asarlari jahonning ko‘p tillariga tarjima qilingan. Rumiy murakkab sufiyona mulohazalarni oddiy turmush tafsilotlari bilan tushuntirib beradi, intihosiz qudratga ega inson aqlining, ruhiyatining mo‘jizalarini hayrotomuz bir tarzda namoyish etadi. Uning qarashlarida biror bir mutaassiblik, ko‘r-ko‘rona aqidaparastlik namunasini ko‘rmaymiz. U tiyrak va hushyor ko‘z bilan dunyoga nazar soladi, insonni qanday bo‘lsa, shunday olib o‘rganadi, inson qalbi to‘ridagi eng nozik, eng yashirin sirlarni oshkor etadi. Mavlono Rumiy odamni tadqiq etadi, uning tabiatini va intilishlarini kuzatadi, botiniy jilolar va surilishlar, qalb siljishlarini qidirib topadi. Insonning iymon gavhari, buyukligi barobarida, nuqsonlari – nafsi, hirsi oqibatida kelib chiqadigan yovuzliklarni tahlil etib, bulardan qutulish, poklanish yo‘llari, fazilatini bayon etadi. Rumiyning har bir fikri bir mash’ala, bir chiroq, qalbga qo‘yiladigan ziyodir. U islomning ulug‘ shoiri va mutafakkiri bo‘lgan holda barcha mazhablar va dinlardan yuqori ko‘tarila oldi, bani basharni birlashtiruchi yagona ilohiy g‘oyalarni olg‘a surib, kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi e’tiqod va iymon, poklik va tavbadan so‘z ochdi: “Yo‘llar muxtalif, ammo maqsad bir, ya’ni, Alloh huzuri”, deya Ulug‘ Tangri haqiqati oldida jami maxluqot barobarligini isbotladi.

Bu asar insonni fikrlashga, fikrlash orqali o‘zligini, o‘zligi orqali Haqni – Yaratganni tushunishga undaydi. Mavlono Rumiy insonni, avvalo, ko‘zini ochishga va ochilgan ko‘zlar bilan o‘z mohiyatiga nazar tashlashga undaydiki, bu bilan u insonning o‘zi bir butun olam – kichik olam ekanligini uqtiradi.

“Ichindagi ichindadur” asari ulug‘vorlik va soddalikning bir makonu bir zamonda sig‘ishib yashashining go‘zal namunasidir. Asar inson ko‘nglida mudrab yotgan umidning qayta uyg‘onishiyu qad rostlashiga yordam beradi, o‘zining mavjudiyati va haqiqatiga ishonch hosil qiladi. Bu juda muhim. Chunki ishonch inson faoliyatining doimiy tashabbuskori, tinimsiz harakatlarining rag‘batlantiruvchisi bo‘lishi bilan birga odamzotni muallaq holdan, yolg‘izlik va uning azobidan qo‘rvuchi hamdir.

Shveytsar psixiatri Karl Gustav Yung esa Sharq insonining ruhiy jihatdan baquvvatligiga havas bilan qaraydiki, Rumiya ayni shu narsaning mohiyati bilan chuqur tanishish imkonibor. Rumiyni bir millat, bir jamiyat yoki bir zamongagina taalluqli qilmay, uni hamma uchun va hamma zamonlar uchun qadrli aylagan asos ham shunda – hazratning sifat va alomatlarga emas, balki mohiyatga – insonning o‘zagiga e’tibor bergenligi bilan izohlansa, ajabmas. Inson qaysi millat, qaysi jamiyat, qaysi

guruh va qaysi zamonga aloqadorligidan qat’iy nazar, o‘ziga tegishli mavzular teran va asosli tarzda talqin qilinganidan Rumiy asarlari atrofida go‘yo bir oilaning farzandlariday to‘planishadi. Buning uchun kishida ma’lum bir tayyorgarlik, yuqori ruhiy-ma’noviy daraja zarur.

Inson buyuk bir mo‘jiza va uning ichida hamma narsa yozilgan. Biroq zulmat va pardalar borki, ular yozuvlarni o‘qishga imkon bermaydi. Zulmat va pardalar, turlituman mashg‘ulotlar insonning dunyo ishlari borasida olgan tadbirlari va ko‘ngilning so‘ngsiz orzularidir. Zulmat va pardalarning bo‘lishiga qaramay, inson ichidagi bir narsani o‘qiy oladi. Insonning ichi hurriyat olamidir. Inson nafsi shubha va tahmin yeridir. Sen undan bularni hech qachon hech qanday vosita bilan daf“ etolmaysan. Inson ko‘rgan va tushungan narsasidan zerikadi, qochadi. Shuning uchun ham faylasuflar ko‘rishi inkor etadilar. Ular aytishadiki: “Ko‘rsam to‘yaman, siqilaman va bu to‘g‘ri emas”. Sunniylar esa: “Uni bir holda va bir rangda bo‘lganda ko‘rish mumkin. Insonning aqli sozlanmagan bo‘lsa, uning butun a’zolari ishlamaydigan holga keladi”.

So‘z haqiqatning soyasi va parchasidir. Modomiki soya o‘ziga tortar ekan, u holda haqiqat yanada yaxshiroq jazb etadi. So‘z idrok qilishda muhtoj bo‘lganlar uchundir. So‘zsiz idrok etganning so‘zga qanday ehtiyoji qoladi? Idrok eta bilgan uchun ko‘klarning, yerning hammasi so‘zdir. Insonni tanimoqchi bo‘lsang, uni gapga sol, so‘zidan uning kim ekanligini bilib olasan.

Inson xayolidagi narsa uni o‘z orqasidan yetaklaydi. Hayol olami tasavvurlar olamiga qaraganda yanada kengdir. Chunki butun tasavvurlar hayoldan tug‘iladi. O‘z navbatida, hayol olami ham uni bor etgan olamning qarshisida yo‘qsildir. So‘z faqat shu qadari anglashiladi, xolos. Yo‘qsa uning haqiqiy ma’noning kalima va jumlalarda oshkor bo‘lishi imkonsizdir. Bittasi: “U holda jumla va so‘zning foydasi nimadir?” – deb so‘radi. Mavlono buyurdiki: So‘zning foydasi shuki, seni istamakka yo‘llaydi, ilhom beradi. Yo‘qsa istalgan so‘z-la xosil bo‘lmaydi. Agar xosil bo‘lsaydi, mujohadayu fidokorlikning nima hojati bor edi? Uzoqda qimillagan biror narsani payqagan kishi uni yaxshiroq ko‘rmoq uchun orqasidan chopadi. Hech mahal qimillamagan narsanining harakati vositasida uni ko‘rmoqchi bo‘lmaydi.

Insonning nutq qobiliyati ham uning ichida xuddi shundaydir. Bittasi: “Men juda ko‘p ilmlar o‘rgandim va bisyor ma’nolarga ega bo‘ldim. Biroq insonda boqiy qolajak ma’noni aniq ravshan bilolmadim, unga yo‘l topolmadim” dedi. Mavlono buyurdiki: Agar u faqatgina so‘z-la ma’lum bo‘lsaydi, vujudning o‘lishiga va bu qadar zahmatlarga hojat qolmasdi. Uning uchun shunchalik ishlararoq kerakki, Yo‘q bo‘lib bitgungacha ishlararoq‘ing shart.

Ma’no so‘zda ko‘rinmaydi va maydonga chiqmaydi. Inson beixtiyor kunda besh-olti marta turli ko‘ngilsizliklarga duch keladi. Va bu insonning emas, balki Allohning ixtiyoridagi ish hamda U insonni nazorat qiladi. Chunki yomon bir qilg‘ilik

natijasi azobdir. Agar nazorat bo‘lmasa, buning jazosini kim beradi? Inson ojiz bo‘lishiga qaramay, uning tabiatи “Men o‘zga zotning hukmi ostidaman!” deya e’tirof etishiga monelik qiladi. Va inson bunga qanoatlanmaydi. “Odamni o‘z shaklu shamoyilida yaratdi” (hadis), Alloh unda bandalik sifatiga zid bo‘lgan Allohning vasfini qarz sifatida qo‘ygandir. Inson boshiga qancha mushtlasa ham, oriyatga aylangan sarkashlikdan voz kechmayapti va barcha omadsizliklarini tezdagina unutyapti. Baribir bu foydasiz. Qarzga berilgan Uluhiyyatni qaytarib bermasdan ketma-ket tushayotgan tarsakidan qutulish mumkin emas. Toza suv har narsani ko‘rsatgani kabi inson ruhi tabiatи bilan birga bilim va ko‘zga ko‘rinmagan barcha narsalarni ko‘rsatadi. Osti va ustidagi barcha narsalarga bir narsa qo‘shmay va ayirmay ko‘rsatish xususiyati suvning yaratilishida mavjud. Baroq suvga tuproq va boshqa narsa aralashsa, bu xususiyat yo‘qoladi. Alloh taolo nabiy va valiy zotlar jo‘natdi. Ular ana shu ulkan, toza suvlarga o‘xshaydi.

Insonning ichi – dahliz, dunyo esa uy. Avval dahlizga, so‘ngra uyga kiriladi. Dahlizda ko‘ringan barcha narsa uyning ichkarisida ham mutlaq zohirdir. Dunyoni uy dedik. Tushuncha va fikrlar shu uyning dahlizlaridir. Dahlizdagi borliq uyning ichida ham mavjud ekanligi bilish kerak. Dunyoda paydo bo‘lgan jamiki xayrli va xayrsiz ishlar, avvalo, dahlizda yuzaga chiqadi. Chunki Alloh taolo orzu va istakni insonning ichiga qo‘yadi. Bularidan esa ko‘rib turganimiz olam barpo bo‘ladi.

Yer, Ko‘k, Arsh va Kursi hamda boshqa ajoyib narsalarning yaratilishi istagini Alloh taolo dastlab ruhlarga bergen. Dunyo esa shuning uchun yaratilgandir.

Xalq “Olam qadimdir” deydi. Ba’zilar, “Hodisdir” (keyin yaratilgan) deyishadi va bular olamga yanada qadim bo‘lgan valiylar va nabiylardir. Alloh taolo olamning yaratilish irodasini ularning ruhlarida hosil qilganidan keyin olam maydonga kelgan. Ular olamning hodis bo‘lishini haqiqatan bilib, o‘z maqomlaridan xabar berishadi. Olam bir toqqa o‘xshaydi. Yaxshi yoki yomon so‘zingni aksi faqat o‘zingga qaytadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, so‘z insonning qiymati qadar qadrlidir. Ba’zilarga oz so‘z ko‘pdan ko‘ra ko‘proq foydali bo‘ladi. So‘zning xayrlisi dalolati ko‘p bo‘lganidir va eng yaxshi so‘z ko‘p bo‘lgani emas, balki foydalisidir.

Ushbu maqolada inson va olam, ong va borliq, inkor va isbot, xayol va amal singari falsafiy tushunchalarning asl mohiyatini tushuntirgan. Jaloliddin Rumiyning “Ichindagi ichindadur” asari insonlik va ilohiylik o‘rtasiga qo‘yilgan mustahkam ko‘prikdir.

Milliy o‘zligimizni o‘zida mujassamlashtirgan buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosi xalqimizning ruhini, g‘urur-iftixorini, qudratini, orzu-intilishlarini aks ettiradigan ma’naviy omillardan biridir. Shu ma’noda, islom olamida o‘lmas asarlari bilan chuqur iz qoldirgan ulug‘ mutasavvif alloma Jaloliddin Rumiy

merosini ilmiy asosda tahlil etish va uning islom madaniyatida tutgan o‘rnini tadqiq qilish masalasi ma’naviy sohadagi islohotlarimiz rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanimanadabiyotlar ro’yxati

1. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy /J.Kamol tarj. –T.: “Meriyus” XHMK, 2010.
2. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy: Tarixiy biografik roman /Ruschadan J.Kamol tarj. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
3. Mavlono Jaloliddin Rumiy: Tavalludining 800 yilligi munosabati bilan: Metod.- bibliogr. qo’ll. /Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi; Tuzuvchi U. Teshaboyeva; Muhamarrir H.Mamatraimova; Mas’ul muharrir O.Qilichboyev. - T.: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2007
4. Баратов III.Р. Методология обучения прикладных психологов: психологические основы социального интеллекта в системе образования/ Вестник интегративной психологии. – Ярославль: 2013, – С. 48-49.
5. Xarakter aksentuatsiyasi tushunchasining ijtimoiy-psixologik tahlili EDUCATION Scientific journal Mart 2022.663 bet
6. Ashurov R. Комплексный подход к изучению ценностных установок 24 выпуск 2022г 48-50 стр.
7. Yoshlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari EDUCATION Scientific journal Mart 2022.663 bet
8. Xarakter aksentuatsiyasining o’quvchilar orasidagi munosabatlarga ta’siri Eurasian Journal of Academic Research, 1(8), 14–16.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5673781>